

**Maxmudova Nargiza Ravshan qizi  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich**

---

**XX-ASR O'ZBEK ADABIYOTIDA BELGI MUNOSABATLARI ( ABDULLA QAHHORNING "TO'YDA AZA" HIKOYASI ASOSIDA)**

**Annotatsiya:** Abdulla Qahhor hikoya janrida juda katta muvaffaqiyatga erishdi. 30-yillarda o'zbek realistik hikoyachiligi ustalaridan biri sifatida tanilgan adib bu janrda qariyb 40 yil ijod qildi. Ushbu hikoyada jamiyatdagi illatlardan biri dinni niqob qilish juda mahorat bilan ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Muxtorxon domla, yigirma yoshli talaba qiz, to'ydag'i janoza, insoniylik, odamgarchilik, estetik zavq.

---

Abdulla Qahhor ijodi XX asr o'zbek adabiyotining yorqin va sermazmun sahifalaridan birini tashkil etadi. Ko'p qirrali bu iste'dod sohibi turli janrlarda rang-barang badiiy asarlar yaratib, o'zbek adabiyoti xazinasini durdonalar bilan boyitdi. Abdulla Qahhor hikoyalari, mavzusidan qat'i nazar, bir maqsadga — kishilarni ezbeglik ruhida tarbiyalash, ularga estetik zavq berishga qaratilgan<sup>1</sup>. Muhim shundaki, adib hikoyalarida bu maqsadga nasihat qilish, bayon etish yo'li bilan erishilmaydi. Balki obrazlar faoliyati, asarning umumiy ruhidan ustalik bilan keltirib chiqariladi. Abdulla Qahhor kundalik oddiy voqealarni aks ettirish orqali katta badiiy umumlashmalar yaratadi.

A. Qahhor urushdan keyingi yillarda "Kampirlar sim qoqdi", "Hamqishloqlar", "Krovat", "Kartina", "Ming bir jon", "To'yda a'za", "Nurli cho'qqilar" singari hikoyalar yaratdi. Bu hikoyalarning sifati har xil. Ulardan "Kampirlar sim qoqdi", "To'yda aza", "Ming bir jon" asarları hikoyachiligidan katta yutug' idir.

A. Qahhor hayot haqiqatini aks ettirishda "To'yda aza" hikoyasida yuksak mahorat namunasini ko'rsatgan. Hikoyada axloq-odob muammosi dotsent Muxtorxon Mansurovning o'z yoshiga yarashmaydigan bachkana harakatlarini fosh etish asosida ustalik bilan yoritilgan. Asar Muxtorxon domlaning el orasidagi obro'si, uning odamoxunligi, kamtarligi va dilkashligini ta'riflash bilan boshlanadi. Bu o'rinda yozuvchi o'quvchida Muxtorxon domlaning ajoyib fazilatlar egasi bo'lgan hurmatli bir kishi ekanligiga ishonch hosil qildiradi.

Lekin ko'p o'tmay mahallada Muxtorxon domla uylanarmish, degan gap tarqaladi. Bu fikr hammaga ma'qul tushadi. Chunki "Domla bundan uch yil burun beva qolib, unga goh singlisi, goh uzatgan qizi qarab yurar edi". "Hech kim qarigan chog'ida juftidan qolmasin, osonmi, kishi nima bo'lishini bilmaydi, bosh yostiqqa tegishi bor... Qari odamga mahram kerak..."

Ana shunday mulohazalarga ko'ra, mahalla ahli "domla otaxonimiz edilar, kelnimiz bizga onaxon bo'ladilar", deb to'yni o'zlar ko'plashib o'tkazmoqchi bo'ladilar. Biroq ana shu vaqtida kutilmagan hodisa ro'y beradi. Ilgari o'z yoshiga yarasha chiroylı soqol qo'yib yurgan va mahalladoshlari bilan salomlashmay o'tmaydigan domla birdan o'zgarib, soqolini tag-tugi bilan qirdirib tashlaydi. Endi u "chamanda gul" do'ppi kiyib yuradigan va odamlarni chetlab o'tadigan bo'lib qoladi.

---

<sup>1</sup> A. Qahhor. U stod. — «Qizil O'zbekiston» gazetasi, 1960-yil, 29-yanvar.

Bu hol mahalla ahlini ranjitadi. Ba’zi birovlarni esa tashvishga solib qo‘yadi. Hademay domla bundan ham zo‘rroq “hunarlar” chiqara boshlaydi: yosh ko‘rinay deb sochini bo‘yatadi, zo‘r bo‘lay deb pivoxonaga borib, pivo bilan aroqni aralashtirib ichadi.

Keyinchalik ma’lum bo’lishicha, domla o‘z talabasi — yigirma yoshli bir juvonga uylanishga ahd qilgan ekan.

Hikoyada yozuvchi qarigan chog‘ida ayniy boshlagan Muxtorxon domlaning qiliqlarini fosh qila borar ekan, ayni vaqtda qari cholga turmushga chiqishga rozilik berib, nomunosib yo‘lga qadam qo‘ygan kelining qiyofasini ham ustalik bilan tasvirlaydi:

To‘yga yaqin qolganda kelin ko‘chaning boshidagi atelega ko‘ylak buyurgani kelgan ekan, nima bo‘lib bundan xabar topgan ayollar ko‘rgani borishdi. Kelin, darhaqiqat, yosh, xuddi qiziqchilikka semirganday yum-yumaloq, egnida qizil ko‘ylak, boshida popushakning tojiga o‘xshagan, lekin qizil shlyapa, qo‘lidagi sumkasi, oyog‘idagi poshnasi bir qarich tuflisi ham qizil. Uni adovat va nafrat bilan boshdan-oyoq kuzatgan ayollarning biri burilib, ateledan chiqib ketar ekan:

— Xo‘rozqandga o‘xshamay o‘l — dedi.

— Qarigan chog‘ida xo‘rozqand yalamay domla ham o‘lsin! — dedi yana biri.

Muxtorxon domla to‘ydan keyin ham tubanlashishda davom etadi: behuda urinib, o‘zini yosh va baquvvatday ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Ommadan butunlay ajralib qoladi. Kelin esa ko‘p vaqt o‘tmay kurortga borishni qo‘msab qoladi. Domla yugurib-yelib yosh kelinga putyovka topadi. Uning zebu-ziynat va latta-puttaga to‘la chamadonlarini ko‘tarib chopadi va nihoyat, zo‘riqib o‘ladi. “Ertasiga domlani ko‘mish marosimi bo‘ldi.

Marosimda mahalladan odam ko‘p qatnashmadi, aftidan, domla ko‘p odamning qalbida bundan bir oy oldin o‘lgan, ko‘plar o‘sha to‘yni domlaning janozasi hisoblash gan edi”. Bu jumlalar hikoyaning yechimini tashkil qiladi. Ayni chog‘da asarning asosiy g‘oyasini ham ifodalaydi, ya’ni bu hikoya orqali adib xalqning fikri, ezgu urf-odatlari va yaxshi an’analari bilan hisoblashmay, o‘ziga nomunosib harakat qilgan har qanday kishi oxir-oqibatda xalq la’natiga uchraydi, degan g‘oyani olg‘a suradi.

“To‘yda aza” hikoyasi — badiiy jihatdan ham yetuk, original. Asar tili — nihoyatda jozibali va obrazli. Bu hikoya haqida moskvalik hajvchi Leonid Lench quyidagilarni aytgan:

“A.Qahhor o‘z qahramonlarining ayanchli taqdiridan kitobxonni kulishga majbur qiladi. Insonning o‘limi haqida kulgili qilib hikoya yozish nihoyatda murakkab. Bu ish faqat Chexovning qo‘lidan kelar edi; fransuzlar eplashar edi. Bizda hozir buning uddasidan chiqadiganlar kam. Qarangki, Abdulla Qahhor shunga muvaffaq bo‘libdi. Kichik bir hikoyada siyqasi chiqib ketgan o‘lim voqeasi yangicha hayotiy bo‘yoqlar bilan yarqirab, jilolanib turibdi”<sup>2</sup>.

### **Foydalanimanligi adabiyotlar:**

1.A. Qahhor. U stod. — «Qizil O‘zbekiston» gazetasi, 1960-yil, 29-yanvar.

2. Mahorat maktabi.— T.: 0‘zdavnashr, 1962, 155-bet.

<sup>2</sup> Mahorat maktabi.— T.: 0‘zdavnashr, 1962, 155-bet.